ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

NIKOH SHARTNOMASINI TUZISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT MUVOZANATI

Nig'matjonova O'g'iloy Lutfullo qizi
Tashkent International University
Yurisprudensiya fakulteti 3–bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23483082

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida nikoh shartnomasi institutining huquqiy tabiati, uning shakli, tuzish tartibi hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Nikoh shartnomasi orqali er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga solish imkoniyatlari, shuningdek shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishdagi huquqiy cheklovlar yoritiladi. Bundan tashqari, nikoh shartnomasini tuzish amaliyotida uchraydigan muammolar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish va mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: nikoh shartnomasi, oila huquqi, er-xotin mol-mulki, mulkiy munosabatlar, notarial tasdiqlash, nikoh, ajrim, oila qonunchiligi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовая природа института брачного договора в Республике Узбекистан, его форма, порядок заключения, а также практическое значение. Освещаются возможности регулирования имущественных отношений супругов посредством брачного договора, а также правовые ограничения при регулировании личных неимущественных отношений. В исследовании анализируются статистические данные о браках и разводах,помимо этого, рассматриваются проблемы, возникающие на практике при заключении брачного договора, и выдвигаются предложения по их устранению и совершенствованию данного института.

Ключевые слова: брачный договор, семейное право, имущество супругов, имущественные отношения, неимущественные отношения, нотариальное удостоверение, брак, развод, семейное законодательство.

ANNOTATION

This article analyzes the legal nature of the institution of the marriage contract in the Republic of Uzbekistan, its form, the procedure for its conclusion, and its practical significance. It examines the possibilities of regulating the property relations of spouses through a marriage contract, as well as the legal restrictions on regulating personal non-property relations. In addition, the problems encountered in the practice of concluding marriage contracts are examined, and proposal are put forward for eliminating them and improving this institution.

Key words: marriage contract, family law, spousal property, property relations, non-property relations, notarial certification, marriage, divorce, family legislation.

KIRISH

Nikoh shartnomasi er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini oldindan belgilashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy vositadir. U nikoh davomida yoki nikohdan ajralish holatida mol-mulk, daromad, oila xarajatlari, qarz majburiyatlari hamda mulkni taqsimlash masalalarini kelishib olish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi nikoh shartnomasining huquqiy tabiati, shakli va tuzish tartibini tahlil qilish, uning orqali tartibga solinadigan mulkiy va nomulkiy munosabatlarning huquqiy chegaralarini yoritishdan iborat. Shuningdek maqolada 2018 va 2026-yillarga oid nikoh, ajrim va nikoh shartnomasi statistikasi o'rganilib, nikoh shartnomasi amaliyotidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha qo'shimchalar va takliflar beriladi.

1.Nikoh shartnomasining huquqiy ta'rifi, shakli va tuzish tartibi

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 29-moddasiga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.[1] Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatidan olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Qonunchilikda nikoh shartnomasining shakliga qat'iy talab qo'yadi: u yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Shartnoma nikoh yoshiga yetgan shaxslar o'rtasida tuziladi va vakil tomonidan tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.[2] Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi.[3] Nikoh shartnomasining muhim xususiyati uning ixtyoriy ravishda tuzilishidir. Ya'ni nikohlanuvchi shaxslar yoki er-xotin nikoh shartnomasi tuzish yoki tuzmaslik masalasini mustaqil hal qiladi.

2.Nikoh shartnomasi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar

Nikoh shartnomasining asosiy mazmunini er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilash tashkil etadi. Shartnoma orqali er-xotin nikoh davomida va nikoh bekor qilingan taqdirda mol-mulk bilan bog'liq munosabatlarini oldindan belgilab olishlari mumkin. Shu jihatdan nikoh shartnomasi er-xotinning mulkiy manfaatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan (OK 23-modda) tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir.[4] Ya'ni er-xotinning barcha mol-mulkiga yoki uning ayrim turlariga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoxud alohida egalik qilish tartibini mustaqil ravishda belgilashi mumkin. Bu esa nikoh shartnomasining er-xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni individuallashtirishga xizmat qiluvchi huquqiy vosita ekanligini ko'rsatadi.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lajak mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.[5] Mazkur qoida nikoh shartnomasining nafaqat er-xotinning mavjud mol-mulkiga, balki kelgusida orttiriladigan mol-mulkiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkinligini anglatadi. Bu esa er-xotinga kelajakdagi mulkiy munosabatlarini oldindan belgilash va ularning huquqiy rejimini aniq tartibga solish imkonini beradi.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli.[6]

[1] O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi.29-modda
[2] Nikoh shartnomalarini notarial tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom (3743) 05.01.2026
[3] O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 15-modda
[4] O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 1998 yil 31-modda
[5] O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 1998 yil 31-modda
[6] O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 1998 yil 31-modda

Mazkur norma er-xotinga o'zlarining mulkiy huquq va majburiyatlarini oldindan o'zaro kelishuv asosida belgilash imkonini beradi. Xususan, ular oilaviy xarajatlarni kim va qanday miqdorda ko'tarishini, bir-birining daromadlaridan foydalanish tartibini, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini hamda nikohdan ajralgan taqdirda mol-mulkni taqsimlash masalasini belgilab olishlari mumkin. Bu esa kelajakda yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan mulkiy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

3.Nikoh shartnomasini tuzish amaliyotidagi muammolar va uni takomillashtirish masalalari

Nikoh shartnomasi instituti O'zbekiston oila qonunchiligida 1998 yildan beri mavjud bo'lishiga qaramay, u amaliyotda keng tarqalgan huquqiy vositaga aylangan deb bo'lmaydi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda respublika notarial idoralarida atigi 219 ta nikoh shartnomasi tasdiqlangan.[7] Shu yili mamlakat bo'yicha 311 mingdan ortiq nikoh qayd etilganini hisobga olsak, nikoh shartnomasi tuzish holatlari juda kam bo'lganini ko'rish mumkin.

Keyingi yillar uchun rasmiy statistika mavjud emasligi tendensiyalarni baholashni qiyinlashtiradi, ammo ilmiy manbalar[8] va ekspertlar fikri uning hali ham ommalashmaganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, umumiy nikoh-ajrim dinamikasini kuzatish nikoh shartnomasi institutining dolzarbligini ko'rsatadi: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida mamlakat bo'yicha 92,3 ming nikoh va 24,8 ming ajrim qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich ajrimlar sonining o'sish tendensiyasini aks ettiradi va nikoh shartnomasi orqali mulkiy munosabatlarni oldindan tartibga solishning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.[9]

Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- **Huquqiy bilim va tushuncha yetarli emas:** Aholining aksariyat qismi nikoh shartnomasining mazmun mohiyatini, qanday huquqlarni tartibga solishidan xabardor emas.
- **Jamiyatda nikoh shartnomasiga nisbatan salbiy qarash mavjudligi:** Fuqarolar o'rtasida ushbu shartnomani tuzish er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik yoki moddiy manfaatdorlik sifatida qaraladi.
- **Ayol kishining moliyaviy va huquqiy qaramligini odatiy hol deb biluvchi qarashlar:** Ayrim oilalarda ayolning moliyaviy masalalarda erkakka qaram bo'lishi, mulkiy va huquqiy masalalarni mustaqil hal qilmasligi odatiy hol deb baholanishi va nikoh shartnomasiga ayol kishining ehtiyoji yo'q deb qaralishi.
- **Murakkabligi va xarajatlar:** Notarial tartib, huquqiy maslahat zarurati hamda tegishli to'lovlar nikoh shartnomasini tuzishga to'sqinlik qiluvchi omil deb qabul qilinishi va ortiqcha xarajat deb hisoblanishi. Bu holat qonunchilikdagi imkoniyatlar va amaliyot o'rtasida katta tafovut mavjudligini ko'rsatadi.[10]

4.Nikoh shartnomasini tuzish istiqbollari va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish

Yuqorida keltirilgan huquqiy normalar va statistik ma'lumotlar nikoh shartnomasining er-xotinning mulkiy munosabatlarini oldindan tartibga solishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, nikoh shartnomasini tuzish amaliyotini yanada rivojlantirish uchun mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratish zarur. Bunda nikoh shartnomasining ixtiyoriylik asosida

[7] E.Sarsenbaeva.Nikoh shartnomasining huquqiy ahamiyati va O'zbekiston amaliyotida uni qo'llash istiqbollari.(2025) INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 3(2), 131-135.
[8] Xayitov, O. (2024). Oila institutining mustahkamlashning huquqiy asoslari. Jurnal of Science and Innovations, 5(8), 188–195.
[9] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida demografik holat: 2026-yil yanvar-iyun oylari uchun press-reliz, 24.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/q2-2026-lotin.pdf
[10] E.Sarsenbaeva.Nikoh shartnomasining huquqiy ahamiyati va O'zbekiston amaliyotida uni qo'llash istiqbollari.(2025) INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 3(2), 131-135.

tuzilishi bilan uning huquqiy himoya vositasi sifatidagi ahamiyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Nikoh shartnomasini amaliyotda qo'llashni kengaytirish hamda yana rivojlantirish uchun quydagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1.Nikoh shartnomasini tuzishni rag'batlantirish- nikohlanuvchilarga uning huquqiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatini tushuntirish hamda shartnoma tuzishga undovchi mexanizmlarni joriy etish.

2.Targ'ibot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish- FHDYO, notariat va OAV orqali nikoh shartnomasini ahamiyatini keng targ'ib qilish va imtiyozlar yaratish.

3.Raqamli imkoniyatlarni kengaytirish- nikoh shartnomasini tuzishni soddalashtirish va u haqida ma'lumot olish bo'yicha elektron xizmatlarni rivojlantirish.

4.Uchinchi shaxslarning asossiz aralashuvini oldini olish- er-xotinning mulkiy munosabatlariga noqonuniy aralashuvdan huquqiy himoyani kuchaytirish.Taraflarning yaqinlari va qarindoshlari bu haqida tushuntirish ishlarini olib borish.

Xulosa

Nikoh shartnomasi er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini oldindan belgilash hamda nikoh davomida va nikohdan ajralish holatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mulkiy masalalarni tartibga solishda muhim huquqiy vosita hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda nikoh shartnomasini tuzishning shakli, tartibi va mazmuniga oid asosiy qoidalar belgilangan.

Shuningdek nikoh shartnomasining ixtiyoriylik asosida tuzilishi saqlab qolinishi bilan birga, uni tuzishni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, nikohlanuvchilar o'rtasida ushbu shartnomaning huquqiy ahamiyati bo'yicha targ'ibot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish, nikoh shartnomasini tuzish jarayonini soddalashtirish maqsadida elektron xizmatlarni kengaytirish va er-xotinning mulkiy munosabatiga uchinchi shaxslarning asossiz aralashuvining oldini olish uchun er-xotinning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi normalarni ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 1998 https://lex.uz/docs/104720
2. Notariuslar tomonidan nikoh shartnomalarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom https://lex.uz/docs/-7973712
3. E.Sarsenbaeva.Nikoh shartnomasining huquqiy ahamiyati va O'zbekiston amaliyotida uni qo'llash istiqbollari.(2025) INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 3(2), 131-135. https://www.uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/4330/4521
4. Xayitov, O. (2024). Oila institutining mustahkamlashning huquqiy asoslari. Jurnal of Science and Innovations, 5(8), 188–195. https://econferences.ru/index.php/sspme/article/download/28801/14882/15115